

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
8-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA  
ORTOPEDIYA ILMIIY-AMALIIY TIBBIYOT MARKAZI**

**«OYOQ BARMOQLARI ORTTIRILGAN  
DEFORMATSIYALARI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOL**

**Toshkent – 2025**

**“KELISHILGAN”**

**Respublika ixtisoslashtirilgan  
Travmatologiya va ortopediya**

**ilmiy-amaliy tibbiyot  
markazi direktori**

**M.E.Irismetov**



**2025 yil**

**«OYOQ BARMOQLARI ORTTIRILGAN  
DEFORMATSIYALARI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOL**

**Toshkent - 2025**

### **Mundarija:**

1. Oyoq barmoqlarining «Orttirilgan deformatsiyalari» bo'yicha tashxis qo'yish va davolashning Milliy klinik protokoli **5-bet**
2. Oyoq barmoqlarining «Orttirilgan deformatsiyalari» bo'yicha tibbiy aralashuvlarning Milliy klinik protokoli **17- bet**
3. Oyoq barmoqlarining «Orttirilgan deformatsiyalari» bo'yicha profilaktika va reabilitatsiyaning Milliy klinik protokoli **30- bet**

**OYOQ BARMOQLARINING «ORTTIRILGAN  
DEFORMATSIYALARI» BO'YICHA TASHXIS QO'YISH  
VA DAVOLASHNING MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

**Toshkent – 2025**

### **1. Kirish.**

Ushbu klinik protokol oyoq barmoqlarining orttirilgan deformatsiyalari bo'lgan bemorlarni tashxislash, davolash va profilaktika qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu protokolni ishlab chiqishda rus tilidagi nashrlarda chop etilgan klinik tavsiyalar va maqolalar, shuningdek, PubMed (MEDLINE) ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar asos qilib olindi.

#### **XKT Kodlari -10/11:**

XKT-10/11

<b>Kod</b>	<b>Nomi</b>
M 20.1 / MB13.1	Bosh barmoqning valgus qiyshayishi (Hallux Valgus) (orttirilgan)
M 20.2 / MB13.2	Oyoq bosh barmog'ining rigidligi (Hallux Rigidus)
M 20.3 / MB13.3	Bosh barmoqning boshqa deformatsiyalari (orttirilgan), shu jumladan bosh barmoqning varus qiyshayishi (Hallux Varus)
M 20.4 / MB13.4	Oyoqning boshqa bolg'asimon deformatsiyalari (orttirilgan)
M 20.5 / MB13.5	Oyoq barmoq(lar)ining boshqa deformatsiyalari (orttirilgan)

<https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en>

<https://icd.who.int/browse10/2019/en>

**Protokolni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi:** Ushbu protokol 2025 yilda ishlab chiqilgan, protokolni qayta ko'rib chiqish 2028 yilda rejalashtirilgan.

#### **Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa:**

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi travmatologiya va ortopediya

#### **Multidissiplinar ishchi guruh a'zolari ro'yxati:**

<b>F.I.Sh.</b>	<b>Ish joyi, Daraja va lavozimi</b>
<b>1. Karimov M.Yu.</b>	Kafedra mudiri TMA, t.f.d., prof.
<b>2. Xudoyberdiyev K.T.</b>	Kafedra mudiri And DTI, t.f.d., prof.
<b>3. Xodjanov I.Yu.</b>	Bo'lim mudiri RITOIATM t.f.d., prof.
<b>4. Karimov X.M.</b>	Kafedra dosenti SRMNMR, t.fn.
<b>5. Valiyev E.Yu.</b>	Bo'lim mudiri RSHTTYOIM, t.f.d., prof.

#### **Mualliflar ro'yxati:**

1. Ravshanov SH.N.. RITOIATM bo'lim mudiri, falsafa doktori.
2. Ibotov B.I.- RITOIATM qo'l va oyoq panjasi xirurgiyasi birlimi xodimi

### **Retsenzentlar:**

1. Abdaliev S.S. T.f.n. ortopediya bo'limi mudiri, Batpenov nomidagi Milliy ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya markazi, Qozog'iston Respublikasi
2. Asilova S.U t.f.d., TTA travmatologiya va ortopediya kafedrasini professori

Klinik protokol RITOIATMning ilmiy kengashida 2025 yil 16 yanvar 01-son yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Texnik ekspert bahosi va tahrirlash:

1. M.M. Saliev – RITOIATMning ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
2. A.R. Xoshimov – TVMOMning travmatologiya va ortopediya kafedrasini assistenti

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

### **Qisqartmalar:**

- MSKT multispiral kompyuternaya tomografiya
- MRT magnit-rezonans tomografiya
- UTT ultratovush diagnostika
- EKG elektrokardiografiya

### **Ushbu nozologiya bo'yicha protokol foydalanuvchilari:**

Travmatolog-ortopedlar, rentgenologlar, nevropatologlar, pediatrlar, umumiy amaliyot shifokorlari, reabilitologlar, anesteziolog-reanimatologlar, tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar

### **Ushbu nozologiya bo'yicha bemorlar toifasi:**

Oyoq barmoqlarining orttirilgan deformatsiyalari bo'lgan bemorlar

**Diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun dalillar darajasini baholash shkalasi (DDBSH):**

<b>DDBSH</b>	<b>Kengaytma</b>
<b>1</b>	Ma'lumotnoma-nazorat ostidagi tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish yoki meta-tahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish
<b>2</b>	Individual ma'lumotnoma-nazorat ostidagi tadqiqotlar yoki individual tasodifiy klinik tadqiqotlar va meta-tahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlardan tashqari har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish
<b>3</b>	Malumot usuli bo'yicha ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan mos yozuvlar usuli bilan tadqiqotlar yoki tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kohort tadqiqotlari
<b>4</b>	Qiyosiy bo'lmagan tadqiqotlar, klinik holat hisoboti
<b>5</b>	Harakat mexanizmi yoki ekspert xulosasi uchun faqat mantiqiy asos mavjud

**Profilaktik, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari uchun dalillar darajasini (DDBSH) baholash uchun shkala**

<b>DDBSH</b>	<b>Kengaytma</b>
<b>1</b>	Meta-tahlil yordamida TKTLarni tizimli ko'rib chiqish
<b>2</b>	Tanlangan TKTLar va meta-tahlil yordamida TKTLardan tashqari har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish
<b>3</b>	Tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan. kohort tadqiqotlari
<b>4</b>	Qiyosiy bo'lmagan tadqiqotlar, misollar hisobotlari yoki holatlar seriyasi, vaziyatni nazorat qilish bo'yicha tadqiqotlar
<b>5</b>	Faqat aralashuvning ta'sir qilish mexanizmi (klinikgacha tadqiqotlar) yoki ekspert xulosasi uchun asos mavjud

**Profilaktik, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari bo'yicha tavsiyalar (DDBSH) bo'yicha aralashuvlar darajasini baholash shkalasi**

<b>DDBSH</b>	<b>Kengaytma</b>
<b>A</b>	Kuchli tavsiya (barcha samaradorlik chora-tadbirlari (natijalari) muhim, barcha tadqiqotlar yuqori yoki adolatli uslubiy sifatga ega va ularning so'ralgan natijalari bo'yicha xulosalari muhokamadan o'tgan)
<b>B</b>	SHartli tavsiyalar (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar yuqori yoki adolatli uslubiy sifatga ega emas va/yoki ularning so'ralgan natijalari bo'yicha xulosalari muhokamadan o'tmagan)

C

Zaif tavsiya (adekvat sifatli dalillarning yo'qligi (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va ularning so'ralgan natijalari bo'yicha xulosalari muhokamadan o'tmagan)

## 2. Asosiy qism

### 2.1. Kirish

Oyoq barmoqlarining orttirilgan deformatsiyalari keng tarqalgan ortopedik patologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu deformatsiyalar tashqi ko'rinish shakli va darajasi bo'yicha turlicha bo'ladi. Ular turli yoshdagi bemorlarda uchraydi. Barmoqlarning bunday deformatsiyalari hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtirishi, og'riq, harakat cheklanishi va kosmetik nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Bu kundalik hayotda, ayniqsa, poyabzal kiyishda sezilarli bo'ladi.

### 2.2. Ta'rif

«Oyoq barmoqlarining orttirilgan deformatsiyalari» atamasi turli xil barmoq qiyshayishlari bilan tavsiflangan bir qator patologiyalarni o'z ichiga oladi. Tug'ma deformatsiyalardan farqli o'laroq, orttirilgan deformatsiyalar aniq sabablarga ega. Ularga mexanik shikastlanishlari, infeksiyon jarayonlar, statik zo'riqishlar va bog'lam apparatining kuchsizligi kiradi. Bu patologiyalarning eng keng tarqalgan turlari — valgus, varus, bolg'asimon va boshqalar.

### 2.3. Oyoq barmoqlarining orttirilgan deformatsiyalarining tasnifi

- **Birinchi barmoqning valgus deformatsiyasi (hallux valgus)** – bosh barmoqning tananing o'rta kesimiga nisbatan tashqi tomonga deformatsiyasi, bir vaqtning o'zida birinchi yo'l barmog'ining ichki tomonga deformatsiyasi bilan tavsiflanadi. Bu deformatsiya yumshoq to'qimalar o'zgarishlari va barmoqning statik chiqishi bilan birga kechadi.
- **Hallux varus** – bosh barmoqning ichki tomonga deformatsiyasi bilan xarakterlanadi.
- **Hallux rigidus** – birinchi panja-barmoq bo'g'imdagi og'riqning eng keng tarqalgan ikkinchi sababi. U artroz va bo'g'im harakatining cheklanishi bilan kechadi, bu esa yurishda qiyinchiliklarga va hayot sifati pasayishiga olib keladi.
- **Bolg'asimon barmoq deformatsiyasi** – barmoqning doimiy egilgan holat bilan tavsiflanadi. U bilan og'riq, qadoqlar va teri yallig'lanishi kuzatilishi mumkin. Konservativ davolash natija bermagan taqdirda jarrohlik aralashuvi tavsiya etiladi.

## 3. Diagnostika usullari, yondashuvlar va jarayonlar

### 3.1. Diagnostik mezonlar

#### **SHikoyatlar:**

Bemorlar asosan poyabzal kiyishdagi noqulayliklar (80%), «o'simta» sohasida og'riq (70%), kosmetik muammolar (60%) va ikkinchi panja suyak boshi ostida og'riqlardan (40%) shikoyat qiladilar. Og'riq tortish tufayli terining orqa nervi bo'yicha ham yuzaga kelishi mumkin.

### Kasallik tarixi:

Bemor bilan suhbat jarayonida kasallik simptomlari, ularning rivojlanishi, umumiy va lokal belgilarga ta'sir qiluvchi omillar baholanadi. Og'riq turi, uning joylashuvi va davomiyligi, nevrologik buzilishlar mavjudligi, poyabzal tanlashda qiyinchiliklar va jismoniy faoliyat cheklanishi aniqlanadi.

### Tekshiruv:

- **Hallux valgus:** birinchi panja- barmoq bo'g'imni ko'zdan kechirish va bursit, og'riq joylashuvini aniqlash.
- Bo'g'im harakatini baholash (normada 70-90° orqa tomonga, 30° plantar egilish).
- Bo'g'imning yon tomon barqarorligini baholash.
- Deformatsiya mobilligini tekshirish.

### 3.2. Diagnostik algoritm va differentsial diagnostika

Diagnostika quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

#### 1. Anamnez yig'ish

- SHikoyatlar: og'riq, diskomfort, kosmetik o'zgarishlar.
- Simptomlar davomiyligi va tabiati.
- SHikastlanishlar, noqulay poyabzal, orttirilgan omillar.
- Xamroh kasalliklar.

#### 2. Fizik tekshiruv:

- Tinch holatda va yuklama ostida oyoqni ko'zdan kechirish.
- Barmoq shaklini baholash (valgus, varus yoki bolg'asimon deformatsiyalar).
- Bo'g'imlarning harakatchanligi (rigid yoki mobil).

#### 3. Instrumental tadqiqotlar:

- Rentgenografiya: deformatsiya burchagi, suyak o'zgarishlari va bo'g'im holati baholanadi.
- Kompyuter tomografiya (KT): murakkab deformatsiyalarni baholash.
- MRT: yumshoq to'qimalar va bo'g'im holati.
- Plantografiya: oyoq tagiga yuk taqsimlanishini baholash.

### DIFFERENTIAL DIAGNOSTIKA

Diagnoz	Differentsial diagnostika uchun asos	Tadqiqotlar	Diagnozni istisno qilish mezonlari
Hallux Valgus	Bosh barmoqning boshqa barmoqlarga tomon qiyshayib borishi, ko'zga ko'ringan deformatsiya va birinchi panja- barmoq bo'g'im sohasidagi mahalliy og'riq.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv	Bosh barmoqning lateral qiyshayishi uni boshqa patologiyalardan farqlash imkonini beradi.
Podagra	Og'riqning tez boshlanishi, qizarish va shish, odatda birinchi panja- barmoq bo'g'im	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, revmaproba	Podagra epizodik bo'lib, yallig'lanish bilan kechadi, Hallux Valgus

	sohasida. Mochevina kislotasining yuqori darajada bo'lishi.		esa surunkali jarayonga ega.
Revmatoid artrit	Simmetrik bo'g'imlar shikastlanishi, tonggi qotishish, tizimli belgilar (charchoq, isitma).	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, revmaproba	Revmatoid artrit simmetrik ravishda ko'plab bo'g'imlarni shikastlaydi va tizimli belgilar bilan kechadi, Hallux Valgus esa bunday emas.
Hallux Rigidus	Birinchi panja- barmoq bo'g'imda harakatlarning kamayishi, og'riq, palpatsiyada osteofitlar.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv	Hallux Rigidus lateral qiyyshayishga ega emas, lekin harakatlarni sezilarli cheklash bilan kechadi.
Travmatik shikastlanish	Mahalliy og'riq, shish, shikastlanishdan so'ng deformatsiya bo'lishi mumkin.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv	Travmalar aniq shikastlanish tarixi va o'tkir simptomlar bilan ajralib turadi.
Metatarzalguya	Oyoq tagi old qismida og'riq, ko'pincha qo'shni bo'g'imlarning zo'riqishi bilan bog'liq.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, podometriya	Metatarzalguyada og'riq diffuz bo'lib, birinchi panja- barmoq bo'g'imga lokallashmagan.
Birinchi bo'g'im artrozi	Surunkali og'riq, harakatlarning cheklanishi, birinchi panja- barmoq bo'g'im atrofidagi suyak o'smalari.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv	Artroz Hallux Valgus'ni eslatishi mumkin, lekin bosh barmoq qiyyshayishi kuzatilmaydi.
Bursit	Mahalliy shish, qizarish va bo'g'im sohasida og'riq. Bosim paytida og'riq kuchayadi.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv	Bursit yallig'lanish bilan bog'liq bo'lib, suyak deformatsiyasi kuzatilmaydi.
Nevroma Mortona	Oyoq tagi old qismida og'riq va uyquchanlik, ayniqsa, tor poyabzal kiyilganda.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, MRT, UZI	Nevromada og'riq neyropatik tusga ega bo'lib, Hallux Valgus'dagi mexanik og'riqdan farq qiladi.
Diabetik oyoq sindromi	Oyoq deformatsiyalari, yaralar, neyropatiya tufayli his etish qobiliyatining yo'qolishi.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, biokimyoviy tahlil	Diabetik oyoq neyrovaskulyar simptomlar va yaralar bilan kechadi, Hallux Valgus bunday belgilarga ega emas.
Infektsion artrit	Qattiq og'riq, bo'g'imning qizarishi va shishi, isitma. Infeksiyaning tizimli belgilari.	Rentgenogramma Klinik tekshiruv, bakteriologik tahlil	Infektsion artrit isitma va o'tkir tizimli belgilar bilan kechadi, Hallux Valgus esa bunday xususiyatlarga ega emas.

#### **4. Ambulator darajada davolash taktikasi:**

##### **4.1. Nomedikamentoz davolash:**

Konservativ davolash usullari XIX asr oxiridan boshlab qo'llaniladi, ammo uning samaradorligi cheklangan. Terapiyaning asosiy maqsadi – simptomlarni yengillashtirish, chunki kasallikning patogenetik sabablari saqlanib qoladi.

##### **Individual ortopedik moslamalar:**

Birinchi panja suyak boshini korrektsiyalash  
Oyoqning kundalang yoyini korrektsiyalash  
Oyoq panjasining o'rta va orqa qismlarini valgus holatini tuzatish  
Birinchi barmoqni to'g'rilovchi tungi shina  
Teyplash  
Ortezlar  
Individual ortopedik poyabzal  
Massaj  
Boldir mushaklarini mustahkamlash uchun davolash gimnastikasi  
Ogriq sindromini yengillashtirish uchun fizioterapiya

##### **4.2. Dorilar bilan davolash:**

Ushbu patologiyalar uchun maxsus dorivor terapiya mavjud emas. Artroz simptomlarini yengillashtiruvchi va osteoartrozlarni davolash bo'yicha klinik tavsiyalarga asoslangan preparatlar qo'llaniladi.

##### **4.3. Jarrohlik aralashuvlari:**

Konservativ davolash samara bermagan holatlarda jarrohlik usullari qo'llaniladi. Jarrohlik aralashuvlar ko'rsatmalari va turlari batafsil tarzda har bir holatga bog'liq holda belgilanadi.

<https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10426298/>

##### **Jarrohlik aralashuvlar uchun ko'rsatmalar:**

- Birinchi barmoqning o'rta va og'ir darajadagi valgus deformatsiyasi
- Og'riq sindromi bilan birga bo'lgan birinchi barmoqning rigidligi, konservativ davolash samara bermaganda
- Poyabzal kiyishni qiyinlashtiradigan bolg'asimon deformatsiya
- Kosmetik va funktsional buzilishlar bilan kechuvchi boshqa deformatsiyalar

##### **Jarrohlik aralashuvlar uchun qarshi ko'rsatmalar:**

- Qandli diabetning og'ir shakli
- YUrak-qon tomir tizimining jiddiy buzilishlari
- Aniq yallig'lanish jarayonlari (shish, qizarish)
- Tromboflebit va chuqur venalar trombozi

- Qon quyulish tizimi buzilishlari

#### **Jarrohlik oldi laboratoriya tekshiruvlari:**

- Qonning umumiy tahlili
- Siydikning umumiy tahlili
- Qon guruhi va rezus-faktorini aniqlash
- Koagulogramma
- Qonning biokimyoviy tahlili
- RW (Vasserman reaksiyasi) tahlili
- B gepatiti bo'yicha ekspress-usul
- C gepatiti bo'yicha ekspress-usul
- Elektrokardiogramma (EKG)

#### **Maxsus mutaxassislar bilan maslahat:**

Pediatr, terapevt, endokrinolog, anesteziolog, nevrolog va boshqa mutaxassislar bilan ko'rsatmalarga asoslangan holda.

#### **Anesteziya turlari:**

- Umumiy anesteziya
- Regional anesteziyasi
- Spinal anesteziya
- Mahalliy anesteziya

#### **Operatsiya turlari:**

##### **Birinchi barmoq valgus deformatsiyasidagi operatsiyalar:**

1. YUmshoq to'qima strukturalaridagi operatsiyalar
2. Suyak strukturalaridagi operatsiyalar:

Distal osteotomiya (SHevron osteotomiya)

Diafizar osteotomiya (Scarf-osteotomiya)

Proksimal osteotomiya

Medial panja-ponasimon bo'g'imning artrodezi (Lapidus operatsiyasi)

Birinchi barmoq asosiy falanga osteotomiyasi (Akin osteotomiyasi)

Teri orqali osteotomiyalar (kam invaziv)

##### **Birinchi barmoq rigidligidagi operatsiyalar (Hallux Rigidus):**

Xeylektomiya

Birinchi panja suyak osteotomiyasi

Birinchi panja- barmoq bo'g'imning to'liq yoki qisman artrodezi

Bo'g'im protezini implantatsiya qilish

Keylizatsiya

## **Bolg'asimon barmoq deformatsiyasidagi operatsiyalar:**

- Bukuvchi pay tenotomiyasi
- Bo'g'im yuzalarini rezektsiya qilish (artroplastika)
- Paylar plastikasi
- Kam invaziv barmoq falangalari osteotomiyasi

### **4.4. Keyingi davolash:**

#### **Jarrohlikdan keyingi davolash:**

Operatsiya tugagandan so'ng, bemor hushiga kelgungacha intensiv terapiya bo'limida kuzatiladi. Agar jarrohlik muvaffaqiyatli o'tgan va asoratlar yuzaga kelmagan bo'lsa, intensiv terapiya davri 1-2 soat davom etadi.

Operatsiyadan so'ng yarani nazorat qilish va bog'lamlarni almashtirish 2-kuni amalga oshiriladi; CHoklar 14-15-kuni yechiladi. Keyingi kuni bemorga yotoqda o'tirishga ruxsat beriladi. 2-3-kundan boshlab davolash gimnastikasi va nafas gimnastikasi tavsiya etiladi.

#### **Jarrohlikdan keyin laboratoriya monitoringi:**

- Qonning umumiy tahlili: gemoglobin darajasi (agar operatsiya paytida qon yo'qotilgan bo'lsa) va qondagi yallig'lanish o'zgarishlarini nazorat qilish.
- Qonning biokimyoviy tahlili (ko'rsatmalarga qarab).

#### **Jarrohlikdan keyingi dorivor ta'minot:**

- Operatsiya yarasidagi infeksiya asoratlarini oldini olish uchun keng ta'sir doirasiga ega antibiotiklar tayinlanadi (doza bemor holati va vazniga bog'liq).
- Og'riq darajasiga qarab opioidlar, analgetiklar va yallig'lanishga qarshi nosteroid dorilar qo'llaniladi.
- Bemor jarrohlik stasionaridan yuborilganda unga jarohat tuzalgunga qadar yorituvchi rejim tavsiya etiladi.

#### **Ambulator kuzatuv:**

Bemor jarrohlikdan keyin 1 oy ichida nazorat uchun kelishi tavsiya etiladi. Bu davrda klinik holati, yangi sharoitlarga moslashuvi, operatsiya yaralarining holati va bemorning shikoyatlari baholanadi. Rentgenografiya faqat klinik ko'rikda aniqlangan salbiy o'zgarishlar bo'lsa, amalga oshiriladi. Davolash rejasiga oyoqning mushaklarini mustahkamlash uchun DJT mashqlari kiritiladi. Keyingi nazorat 6 oy va 1 yildan keyin o'tkaziladi.

### **4.5. Davolash samaradorligini baholash indikatorlari:**

- **YAxshi natija** – oyoqning shakli va funksiyasi to'liq tiklangan, og'riq yo'qolgan va bemor hayoti sifati yaxshilangan.
- **Qoniqarli natija** – funktsiya tiklangan, ammo qoldiq deformatsiyalar mavjud.
- **Qoniqarsiz natija** – deformatsiya qaytalangan.

## 5. Gospitalizatsiya ko'rsatmalari:

### 5.1. Rejali gospitalizatsiya:

- Birinchi barmoqning o'rta va og'ir darajadagi valgus deformatsiyasi
- Birinchi barmoq rigidligi
- Bolg'agasimon deformatsiya va boshqa barmoq deformatsiyalari kosmetik yoki funksional o'zgarishlar bilan

### 5.2. SHoshilinch gospitalizatsiya:

SHoshilinch ko'rsatmalar mavjud emas.

## 6. Statsionar davolash taktikasi:

### 6.1. Bemorning kuzatuv xaritasi va yo'naltirish:

Har bir bemor uchun individual yo'naltirish va kuzatuv xaritasi ishlab chiqiladi.

Bo'lim	Tafsilotlar
Qabul bo'limidagi (poliklinika) shifoxona ko'rigi	Ortoped tomonidan deformatsiyalangan bemorning jismoniy tekshiruvi. Laboratoriya va instrumental tekshiruvlarga yo'naltirish.
SHifoxonaning laboratoriya bo'limi	Laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazish. Instrumental tekshiruvlarni o'tkazish.
Qabul bo'limi	Statsionar bemorning kartasini rasmiylashtirish. Bemorni ortopediya bo'limiga gospitalizatsiya qilishga yo'naltirish.
SHifoxonaning ortopediya bo'limi	Ortopediya bo'limi mudiri ko'rigi. Anesteziolog tekshiruvi. Endokrinolog tekshiruvi. Operatsiya sanasini belgillash.
Operatsiya bo'limi	Jarrohlik aralashuvini o'tkazish.
SHifoxonaning ortopediya bo'limi	Ortoped ko'rsatmasiga ko'ra statsionar nemedikamentoz va medikamentoz davolash. Operatsiya qismi ustidan nazorat. Ambulator kuzatuv uchun yozib chiqarish.
Turar joy poliklinikasi, oilaviy poliklinika	Ambulator shartlarda reabilitatsiya; Ambulator shartlarda profilaktika; Ambulator shartlarda dispanzerizatsiya.

## **7. Protokolning tashkiliy jihatlari:**

### **7.1. Manfaatlardan to'qnashuvi haqida ma'lumot:**

Manfaatlardan to'qnashuvi mavjud emas.

### **7.2. Mutxassislar ma'lumotlari (respublika va xorijiy ekspertlar):**

1. Asilova S.U. – tibbiyot fanlari doktori, TTA travmatologiya va ortopediya kafedrasida professori.
2. Abdaliev S.S. – tibbiyot fanlari nomzodi, QozTOITI ortopediya bo'limi rahbari.

### **7.3. Protokolni qayta ko'rib chiqish shartlari:**

Protokol ishlab chiqilganidan so'ng 3 yoki 5 yil ichida yoki dalillarga asoslangan yangi metodlar paydo bo'lganda qayta ko'rib chiqiladi.

Protokol har uch yilda yoki dalillar bazasiga ega yangi metodlar paydo bo'lgan taqdirda qayta ko'rib chiqiladi.

# **«ORTTIRILGAN OYOQ BARMOQLARI DEFORMATSIYALARI» BO'YICHA TIBBIY ARALASHUVLAR MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

## Tashkent – 2025

### 1. Asosiy qism

#### 1.1. Kirish

Orttirilgan oyoq barmoqlari deformatsiyalarini, masalan, **Hallux Valgusni** konservativ davolash usullari barqaror natijalarga erishish va funktsional hamda estetik buzilishlarni bartaraf etish uchun yetarlicha samarali emas. Sababi shundaki, oyoq deformatsiyalari murakkab tusga ega bo'lib, suyaklar, bo'g'imlar, bog'lamlar, yumshoq to'qimalar va mushaklarga ta'sir qiladi. Konservativ davolashning asosiy usullariga ortopedik oyoq kiyimi, stekalar, shinalar va barmoq holatini to'g'rilash vositalaridan foydalanish, fizioterapevtik protseduralar va davolovchi jismoniy tarbiya kiradi. Biroq, bu choralar ko'pincha faqat vaqtinchalik simptomlarni yengillashtiradi yoki deformatsiyaning o'sishini sekinlashtiradi, ammo mavjud anatomik patologiyani to'liq bartaraf eta olmaydi.

**Hallux Valgusni** davolash bo'yicha 100 dan ortiq turli xil jarrohlik usullarining mavjudligi ushbu murakkab patologiyani davolashda yagona universal yondashuvning yo'qligidan dalolat beradi. Har bir usul deformatsiyaning aniq jihatlarini tuzatishga qaratilgan, masalan, birinchi panja suyakning deformatsiyasi ni, bosh barmoqning lateral siljishini yoki mushaklar va bog'lamlar disbalansini bartaraf etish. Eng ko'p qo'llanadigan usullar qatoriga **osteotomiyalar, artrodezlar, yumshoq to'qimalar korrektsiyasi** va **kombinatsiyalangan operatsiyalar** kiradi. SHunga qaramay, operatsiyadan so'ng qoniqarsiz natijalar ko'rsatkichi 55% ga yetishi mumkinligi har bir bemorga individual yondashuvning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Murakkablik shundaki, natijalarga ta'sir qiladigan yosh, faollik darajasi, deformatsiya darajasi va boshqa omillarni hisobga olish zarur.

Qoniqsiz natijalar muammosi retsivlar va asoratlar ehtimoli bilan ham bog'liq bo'lib, bu yetkazilgan tuzatishning yetarli emasligi, bo'g'im beqarorligi, **osteoartroz rivojlanishi, harakatchanlikni yo'qotish va og'riq sindromi** kabi holatlarga olib kelishi mumkin. To'g'ri amalga oshirilgan jarrohlik aralashuvidan keyin ham uzoq reabilitatsiya davri va oyoq parvarishi bo'yicha tavsiyalarga amal qilish muvaffaqiyatli tiklanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

<https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8023907/>

<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK553092/>

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214963521000432>

## 1.2. Ta'rif

Operativ davolash usullari **oyoq barmoqlarining yaqqol va stabil deformatsiyalarida** qo'llaniladi, chunki konservativ choralar sezilarli natija bermaydi. Jarrohlik aralashuvi ayniqsa quyidagi hollarda zarur: deformatsiya kuchli og'riq tug'dirsa, harakat cheklanishiga sabab bo'lsa, oyoq kiyim kiyishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa yoki katta kosmetik nuqsonlar kuzatilsa. Operatsiyalar **suyaklar deformatsiyasini to'g'rilashga, bo'g'implarni barqarorlashtirishga va oyoqning to'g'ri biomexanikasini tiklashga** qaratilgan.

Aniq jarrohlik davolash usuli **individual tarzda** tanlanadi, deformatsiyaning darajasi va xususiyati, bemorning yoshi, jismoniy faollik darajasi hamda boshqa omillarga bog'liq holda. Operatsiyaning asosiy maqsadi faqat deformatsiyani bartaraf etish emas, balki **oyoqning funktsionalligini tiklash, bemorning hayot sifatini yaxshilash** va kasallikning kelgusida progress qilishining oldini olishdir.

## 1.3. OPERATIV ARALASHUVLARNING KLASSIFIKATSIYASI

<https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10426298/>

**Deformatsiya darajasiga bog'liq holda ortopedlar quyidagi davolash usullaridan foydalanadilar:**

- oyoqning old qismidagi **pay va mushak plastikasi**;
- I panja suyak boshidagi «**suyakchani**» **rezektsiya qilish**;
- **korrektsiyalovchi osteotomiyalar va artrodezlar** (implantatlarini qo'llash orqali);
- **kam invaziv (teri orqali) operatsiyalar**.

## I barmoqning valgusli deformatsiyasida operatsiyalar

YUmshoq to'qimalarda bajariladigan operatsiyalar  
YUmshoq to'qimalar operatsiyalari pay va bog'lam apparatini mustahkamlash orqali deformatsiyani tuzatishga qaratilgan. Bu usul asosan qo'shimcha chora sifatida qo'llaniladi.

Suyak tuzilmalariga operatsiyalar

Distal osteotomiya (Shevron osteotomiya): O'rtacha darajadagi deformatsiya.

Diafizar osteotomiya (Scarf osteotomiya): O'rtacha va kuchli darajadagi deformatsiya.

Proksimal osteotomiya: Suyaklarning og'ish burchagi 30° dan ortiq bo'lganda qo'llaniladi.

Artrodez - medial panja-ponasimon bo'g'imi (Lapidus operatsiyasi): Bo'g'im gipermobilligi bilan birga bo'lgan kuchli deformatsiyalarda.

I barmoq falanga osteotomiyasi (Akin osteotomiyasi): Valgusli deformatsiyalarni korrektsiya qilish.

Teri orqali osteotomiyalar (kam invaziv): Kam invaziv usul.

---

## I barmoqning rigidligida (Hallux Rigidus) operatsiyalar

Xeylektomiya: osteofitlarni olib tashlash.

I panja suyak osteotomiyasi: Suyak burchaklarini tiklash.

Qisman yoki to'liq artrodez: Bo'g'imlarni qat'iy fiksatsiya qilish.

Protez implantatsiyasi: Harakatni saqlab qolish va og'riqni bartaraf etish.

Keylizatsiya: Suyaklarning o'zaro "yumshoq" harakatlanuvchanlikni shakllantirish.

---

## Bolg'asimon deformatsiyada operatsiyalar

Tenotomiya payni kesish: Deformatsiyani to'g'rilash uchun paylarni kesish.

Suyak yuzalarini rezektsiya qilish (artroplastika): Deformatsiyani to'g'rilash.

Artrodez: Bo'g'imlarni tik holatda fiksatsiya qilish.

Pay plastikasi (Flexor to Extensor Transfer): Pay kuchlarini qayta taqsimlash.

Kam invaziv, perkutan barmoq falangalari osteotomiyasi: Kam invaziv korrektsiya.

## 2. Usullar, yondashuvlar va jarayonlar

### 2.1. Jarayon yoki aralashuvning maqsadi

Barmoq deformatsiyalari bilan bog'liq anatomik, kosmetik va funktsional buzilishlarni bartaraf etish.

### 2.2. Operatsiyaga ko'rsatmalar

Valgusli deformatsiya (o'rta va kuchli darajada).

Rigidlik va konservativ davolash samarasizligi.

Bolg'asimon deformatsiya.

Kosmetik va funktsional buzilishlar.

### *2.3. Operatsiyaga qarshi ko'rsatmalar*

Qandli diabetning og'ir shakli.  
YUrak-qon tomir tizimida jiddiy buzilishlar.  
YAllig'lanish jarayonlari (shish, qizarish).  
Tromboflebit yoki tromboz.  
Qonning ivish tizimi buzilishlari.

### *2.4. Jarayonni amalga oshiruvchi mutaxassisga qo'yiladigan talablar*

Travmatolog-ortoped, kerakli malakaga ega va ushbu operatsiyalarni bajarishda ishtirok etgan tajribaga ega bo'lishi kerak.

### *2.5. Jarayonga tayyorgarlik uchun asosiy va qo'shimcha diagnostika tadbirlari*

Operatsiya oldi laboratoriya tekshiruvlari:

- Qonning umumiy tahlili
- Siydik tahlili
- Qon guruhi va rezus-faktorni aniqlash
- Koagulogramma
- Qonning biokimyoviy tahlili
- RW tahlili
- Gepatit V va S ekspress-metodi
- EKG

SHuningdek, pediatr, terapevt, anesteziolog va boshqa mutaxassislarning maslahatlari ko'rsatma bo'yicha o'tkaziladi.

### *2.6. Jarayon yoki aralashuvni o'tkazishga qo'yiladigan talablar*

#### **Jarrohlik xonalariga qo'yiladigan talablar**

Jarrohlik xonadalarining mavjudligi, tasdiqlangan sanitariya normalari (SanPIN) talablariga muvofiq jihozlanganligi, aseptika va antiseptika choralariga rioya qilish. Mahoratli anesteziolog-reanimatologiya brigadasining bo'lishi talab etiladi.

#### **Jihozlanish:**

- Jarrohlik stoli;
- Jarrohlik lampasi;
- Elektrokoagulyator;
- Kichik jarrohlik va travmatologik instrumentlar;
- Steril matolar;
- Steril bint va boshqa bog'lovchi materiallar;
- Bir martalik materiallar;
- Anesteziologiya va antiseptika vositalari.

## 2.7. Bemorni tayyorlashga qo'yiladigan talablar

### Bemorlarni jarrohlik aralashuviga tayyorlash

Bemorlarni tayyorlash umumqabul qilingan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Laborator va funksional tekshiruvlardan so'ng bemor pediatr, terapevt va anesteziolog tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'rsatmalar bo'yicha qo'shimcha tekshiruvlar, boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar va tayyorlovchi davolash choralari kelishiladi. Kamqonlik holatida gemoglobin darajasini rejali korrektsiya qilish zarur.

Anesteziya usuli anesteziolog tomonidan bemorning umumiy holati va jarrohlik aralashuvi o'tkaziladigan sohani hisobga olgan holda belgilanadi. Bolalar uchun tavsiya etiladigan anesteziya turi – venaning ichiga qo'llaniladigan narkoz; kattalar uchun – spinal yoki o'tkazuvchi anesteziya.

### Bemorni operatsiyaga tayyorlash

Ichaklarni bo'shatish va kesish soha terisini sanitariya qilish jarrohlikda qabul qilingan umumiy metodika bo'yicha amalga oshiriladi.

Operatsiya boshlanishidan 2 soat oldin o'pkalar va operatsiya jarohatlari tomonidan infeksiyon asoratlarning oldini olish maqsadida keng spektrli antibakterial vositalardan birini yoshga mos dozalarda tayinlash tavsiya etiladi.

### Jarrohlik aralashuvlarini amalga oshirish usullari

#### *Valgus deformatsiyasida I barmoqqa jarrohlik aralashuvlari*

#### **1. YUmshoq to'qimalardagi operatsiyalar**

YUmshoq to'qimalardagi operatsiyalar I barmoq deformatsiyasini pay-bog'lam apparatini mustahkamlash orqali tuzatish uchun qo'llaniladi. Ular alohida qo'llanilganda barqaror natija bermaydi. Hozirgi vaqtda ular qo'shimcha aralashuv sifatida, osteotomiyalar bilan kombinatsiyada, jiddiy deformatsiyalarda qo'llaniladi.

#### **2. Suyak tuzilmalaridagi operatsiyalar**

##### **Distal osteotomiya (SHevron osteotomiyasi)**

**Ko'rsatma:** I barmoqning o'rta darajadagi deformatsiyasi.

##### **Texnika:**

Oyoqning ichki tomoni bo'ylab medial kesma amalga oshiriladi. I panja suyak boshi ochilgandan so'ng, 60° ga yaqin burchak hosil qiluvchi V-simon kesma o'tkaziladi. Panja suyak boshi lateral tomonga siljiriladi. Fiksatsiya vintlar yoki boshqa fiksatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Xirurg bo'g'im barqarorligini baholaydi va zarur bo'lsa, qo'shimcha deformatsiyalarni (masalan, Akin osteotomiyasi) bartaraf etadi.

##### **Diafizar osteotomiya (Scarf-osteotomiya)**

**Ko'rsatma:** O'rta va katta darajadagi deformatsiya.

**Texnika:**

Medial kesma orqali I panja suyak diafizi ochiladi. Suyak zigzagsimon kesiladi. Fragmentlar tuzatilib, zarur burchakni tiklash uchun o'rnatiladi. Vintlar bilan mustahkamlanadi.

**Xususiyatlari:** U uch o'lchamli tuzatish imkonini beradi, bu distal osteotomiyalarga nisbatan deformatsiyalarni aniq bartaraf etishni ta'minlaydi.

**Proksimal osteotomiya**

**Ko'rsatma:** Hallux Valgus, birinchi va ikkinchi panja suyaklar orasidagi burchak 30° dan yuqori.

**Texnika:**

Birinchi panja suyak asosi ustida kesma o'tkaziladi. Suyakning proksimal qismi ponasimon yoki V-simon shaklda kesiladi. Segmentlar vintlar yoki plastinalar bilan mustahkamlanadi.

**Medial panja-ponasimon bo'g'im artrodezi (Lapidus operatsiyasi)**

